

Toshkent davlat sharqshunoslik instituti  
“Jahon siyosati va tarix” fakulteti  
“Tarix (mamlakatlar va yoʻnalishlar boʻyicha)”  
yoʻnalishi “dariy-ingliz” guruhi  
1-bosqich magistranti Doʻsmatova  
Oltinoyning “Oʻrganilayotgan mintaqa taraqqiyoti  
xususiyatlari ” fanidan

# Referat

**Mavzu:** *Mintaqa mamlakatlarida diniy omilning oʻrni*

**Bajardi:** Doʻsmatova O.T.

**Tekshirdi:** Abdullayev N.A.

Toshkent - 2015

Erondagi barcha norozilik chiqishlariga shialar yo'lboshchisi Oyatullo Humayniy rahbarlik qildi. U mamlakatni "chet ellik kofirlar"ning buzg'unchi ta'siriga yo'l ochib bergan shoh islohotlariga qarshi va'z qildi. 1964-yilda mamlakatdan quvib chiqarilgandan so'ng uning shaxsiy o'chi ham yo'q emas edi.

1979-yil 11-fevralda Tehronda umumiy qurolli qo'zg'olon boshlandi. U shoh jo'nab ketgandan so'ng omma ustidan nazoratini yo'qotgan diniy doiralar buyrug'i va ishtirokisiz boshlandi. Qo'zg'olonni so'l kuchlar yo'lboshchilari - Tude partiyasi qoldiqlari va Eronda respublika tuzumini qaror toptirishga intilgan turli partiyalar vakillari ko'tardi. 12-fevralda qo'zg'olonchilar tomoniga har biy qismiar ham o'tdi. Inqilob g'alaba qozondi. Biroq qo'zg'olonchilar ku rash olib borayotgan vaqtda shia yo'lboshchilari nafaqat shohga, balki so'l kuchiarga ham qarshi bo'lgan huku matni shakllantirdi. 1979-yil 15-fevralda Tehronga Oyatullo Humayniy yetib keldi, u "islom inqilobi"ning yo'lboshchisi deb e'lon qilindi.

U o'zini islom podshohligini o'rnatish uchun yuborilgan 12-imom (mahdi) deb e'lon qildi. Ruhoniyat hokimiyat organlarini to'liq o'ziga bo'ysundirdi. Mamlakatda siyosiy hayot, ijtimoy va oilaviy munosabatlar, ta'lim va boshqarishni islomlashtirish dasturi amalga oshirila boshladi.

1979-yil 1-apreldan boshlab mamlakat "Eron Islom Respublikasi" rasmiy nomini oldi. Shu yil yangi konstitutsiya qabul qilindi. 1980-yilda prezidentlikka va Islom kengashi majlisiga ilk saylovlar bo'lib o'tdi. Konstitutsiyaga muvofiq, mamlakatning oliy siyosiy va ruhoniy rahbari hokimiyatning barcha organlari faoliyatini nazorat etuvchi va Eronning umrbod hamda yakkayu yagona hukmdori bo'lgan Oyatullo Humayniy edi.

1980-yilning sentabrida Eron va Iroq o'rtasida urush boshlandi. Bu urush 8 yil davom etdi va Eronga qariyb \$.350 mlrd ga tushdi. 700 ming eronlik halok bo'ldi. Milliy kamsonli aholi bilan munosabatlar keskinlashdi: kurdlar, turkmanlar, belujlar va boshqa xalqlar o'zi uchun milliy muxtoriyat talab etib chiqdi.

Ichki muxolifatni bostirish uchun, Humayniy "islom madaniy inqilobi"ni boshlash haqida dekret qabul qildi. Muassasalarda islom bosh kiyimini kiyish, ayollarning chodra o'rashi majburiy qilib qo'yildi. Mamlakatdagi barcha oliy o'quv yurtlarining islomlashtirilgani e'lon qilindi.

Biroq tez orada shia rahbariyati orasida nizolar boshlandi, bu hol butun ruhoniyatning parchalanishi va Humayniyga qarshi chiqishga olib keldi. Mamlakatning birinchi prezidenti Banisadr tezda Oyatullo yaqinlarining ekstremizmiga qarshi chiqdi va go'yoki "muxolifatdagi prezident" bo'lib qoldi. Tez orada u mamlakatni tark etishga majbur bo'ldi.

Shia rahbariyati muxolifatga qarshi mislsiz qatag'onlarni amalga oshirdi. 1982-yilning yozidan boshlab osib o'ldirish orqali qatl etishlar boshlandi. (1982-yilda - 15 ming, 1983-yilda - 25 ming, 1984-yilda - 30 ming kishi). Hatto, homilador ayollar va kichik yoshdagi bolalar ham islom inqilobi kurashchilarining qurbonlariga aylandi. Shia yo'lboshchilari 1978-1979-yillar inqilobining yetakchi kuchi bo'lgan va Humayniyning Eronga qaytishini ta'minlagan Tude par tiyasini qariyb yo'q qilib tashladi.

Biroq, xalqaro munosabatlardagi chorasiz vaziyat va mamlakat iqtisodiyotida o'pirilishlarning boshlanishi uning yo'lboshchilarini ichki va tashqi siyosatda o'zgarishlarga olib borishga majbur etdi. 1987-yilning iyunida Humayniy Islom respublikachilar partiyasini (IRP) tarqatib yubordi, bu partiya ruhoniyatning tayanchi edi. 1989-yili Humayniy vafotidan so'ng Eron prezidenti etib Hoshimiy-Rafsanjoniy saylandi. U liberal qarashlarga ega kishi sifatida iqtisodiy islohotlar va ijtimoiy hayotni erkinlashtirish yo'lini olib bordi.

Eron katta qiyinchiliklarga uchradi. Aholining tezkor o'sishi oziq-ovqat ekinlarini ishlab chiqarishdan o'zib ketdi. Mehnatga layoqatli aholining 15% i ishsiz edi. *1986-yildan* keyingi neft narxlarining pasayishi ham sezildi.

Eron uchun so'nggi yillardagi eng asosiy masala besh yillik (*1995-2000 yillar*) rejani amalga oshirish bo'yicha loyihalarni rivojlantirishga kreditlar olish bo'ldi. G'arb investorlari yordamida yirik neft majmualari, metallurgiya kombinatlari qurila boshladi, avtomobil sanoati modernizatsiya qilinmoqda. Eron o'z atom elektrostansiyasini qurishga intilmoqda. Biroq xalqaro noqulay ahvol bu rejalarini amalga oshirishga asosiy to'siq bo'ldi. AQSH ma'muriyati Eronni terrorizm markazlaridan biri deb e'lon qildi va unga nisbatan qattiqqo'llik yo'lini tanladi. AQSH Eron bilan savdo-sotiqqa embargo kiritdi, boshqa G'arb mamlakatlari esa AQSH bosimi ostida Eronga ilg'or texnologiyalarni keltirishni man etuvchi sanksiyalar kiritishdi.

*1997-yil avgustda* Eronda yangi prezident saylovlari bo'lib o'tdi. 54 yoshli ruhoniyo'lboshchisi Muhammad Hotamiy g'alaba qozondi, u shia ruhoniyatining yangi avlodi vakili sifatida maydonga chiqdi.

U o'zining saylovoldi chiqishlarida ijtimoiy adolat, fuqarolik huquqlari va qonun ustuvorligini hurmat qilishni yoqlab chiqdi, yoshlarni siyosatga keng jalb qilish, milliy boyliklarni ancha adolatli taqsimlash masalalarini ko'tarib chiqdi.

Hotamiy saylovchilarning ko'pchilik ovozi bo'ldi va parlament tomonidan ma'qullandi. Iqtisodiyotning ahvoli islohotlarning markaziy masalasi edi. Mamlakatning asosiy boyligi bo'lgan neft qazib chiqarish inqilobdan keyingi yillarda ikki marta kamaydi, aholi esa 40% ga o'sdi. Iqtisodiy ishlab chiqarish sur'atlari real ifodalanganda atigi 1% ga o'sdi, zotan 40% ishchi kuchi ishlab chiqarish faoliyati bilan ta'minlanmadi.

Tashqi siyosatda Hotamiy AQSH va G'arbiy Yevropa bilan munosabatlarda keskinlikni pasaytirishga intildi. Eron rahbariyati Rossiya bilan hamkorlikni faol olib bormoqda, u kimyo sanoati, atom energetikasini rivojlantirishga yordam bermoqda, shuningdek, qo'shinni modernizatsiya qilish uchun zamonaviy qurol-yarog' yetkazib bermoqda.

So'nggi paytda Eron O'rta Osiyo respublikalari - *Turkmaniston, O'zbekiston, Tojikiston, Qozog'iston va Qirg'iziston* bilan iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirishga intilmoqda. *1996-yilda* Mashhad (Eron) va Saraxs (Turkmaniston) o'rtasida temir yo'l qurilishi tugallandi, bu yo'l mazkur respublikalarni Fors qo'ltig'iga olib chiqdi.

Eron *2020-yilga* borib, 7 ming km.ni tashkil etuvchi o'z temir yo'llarining umumiy uzunligini Fors qo'ltig'idagi Bender-Abbos bandargohiga tomon marshrutm 900 km qisqartiruvchi Mashhad va Balkom oralig'ida yangi yo'l qurish, shuningdek, O'rta Osiyo temir yo'l tarmog'ini Afg'onistonni chetlab o'tib, *Pokiston* va *Hindiston* bilan bog'laydigan *Zohidondan - Karmanagacha* bo'lgan boshqa yo'lni qurish orqali uch marta oshirishni rejalashtirgan.

*2002-yil sentabrda* O'zbekiston va Eron o'rtasida iqtisodiy, madaniy va siyosiy sohalarida hamkorlikni kengaytirishi hamda mintaqada barqarorlikni oshirishi lozim bo'lgan muhim bitim tuzildi.

## Afg'oniston

Afg'onistonning siyosiy maydonida yangi kuch - o'zi haqida *1994-yilning noyabridayoq* ma'lum qilgan toliblar paydo bo'ldi. Ularning dasturi bir-biriga dushman guruhlarini qurolsizlantirish va tugatish hamda izchil islom hukmronligini o'rnatishni ko'zda

tutdi. Ular Pokistondagi harbiy tay yorgarlikni o'tadi va eng zamonaviy qurol-yarog'ga ega bo'ldi. Toliblar rahban Muila Umar izchil ismoylik va vahliobiylik vakili bo'ldi. Uning maslahatchilari orasida Saudiya Arabistonining yetakchi ruhonlyari bor bo'lib, harbiy maslahatchisi esa xalqaro terrorchi Usoma bin Loden edi.

*1995-yil yanvarda* ular Kobulga hujum boshladilar. Mamlakat vayron etildi, hamma joyda ocharchilik boshlandi, shu bois poytaxtni egallash qiyinchilik tug'dirmadi. Toliblarga qarshi muxolifat kuchlari parchalanib ketdi. Prezident Rabboniy Badaxshonga qochdi, bu yerda Ahmad Shoh Ma'sudning asosiy kuchlari joylashgan edi. General Do'stum o'z qismlan bilan shimolga yo'l oldi va Hirot, Balx, Mozori Sharifni o'z tayanch punktlariga aylantirdi. Hikmatyor o'z tarafdorlari bilan Jalolobodni egalladi, bu bilan mag'lubiyatga uchrab qolsa, Pokistonga qochishni mo'ljalladi.

*1996-yil oktabrda* toliblar Kobulni egalladi. Afg'onistonning sobiq prezidenti Najibullo qatl etildi. Toliblar "xalq dushmani" yoki o'zgacha fikrlovchi deb hisoblaganlardan ommaviy o'ch olishni boshladi. Vahhobiylik tamoyilariga muvofiq ayollarga o'qish va ishlash man etildi. Ular ko'chada ochiq yuz bilan yura olmasdi. Dunyoviy maktablar yopildi, faqat diniylarigina ishladi, hammaning namozga borishi majburiy qilib qo'yildi. Kobulda zo'ravonlik odatiy tusga kirdi.

Toliblar o'z raqiblarining tarqoqligi va tushkunligidan foydalandi. *1997-yil iyulda* ular ikki yo'nalishda - Hirotidan Mozori Sharif, Kobuldan Bog'lon va Toluqon tomon hujum boshladi. Do'stunning xalq ko'ngillilaridan bir qismi sotqinlik qilib, toliblar tomonga o'tdi. Toliblarning diniy targ'iboti ham muhim rol o'ynadi. Ahmad Shoh Ma'sud o'z qo'shinini hal qiluvchi jangdan olib chiqdi. Afg'onistonda biron-bir taraf g'alabaga erisha olmaydigan vaziyat yuzaga keldi. Millionlab kishilar mamlakatdan tashqariga qochib ketdi, qolganlari esa tirikchilik uchun kurash olib bordi.

Toliblarning shimoliy viloyatlarni bosib olishi ularni mamlakatlarning 90% hududi ustidan nazorat qilishiga olib keldi. Afg'oniston uzra islom fundamentalizmi va mamlakatning terroristik markazga aylanishi xavfi paydo bo'ldi. Toliblar tuzumining o'zi terroristik edi. Ular odamlarni televizor ko'rgani, radio tinglagani uchun ham, shariat me'yorlarini buzgani uchun ham qatl etdi lar. Ayoilarga o'qish va ishlash man etildi, erkakiarga soqol qo'yish majburiy bo'ldi, musiqa, raqs va konsertlar taqiqlandi. Tarix toliblar tuzumidan ham g'ayriinsoniy tuzumni ko'rmagan desak mubolag'a bo'lmasa kerak.

*1993-yil martda* O'zbekiston Respublikasi prezidenti I.Karimov BMTga maktub orqali qilgan murojaatida mojaroni cheklash va hal etish, xususan, Afg'onistonga qurol-yarog' olib kirishga *embargo* kiritish bo'yicha aniq takliflarni olg'a surdi. *1998-yilda* uning taklifi bilan Toshkentda "6+2" formulasi bo'yicha (*Eron, Pokiston, Turkmaniston, O'zbekiston, Xitoy, Tojikiston, + Rossiya va AQSH*) uchrashuv o'tkazildi, unda Afg'onistonning qarama-qarshi turgan kuchlari vakillari ishtirok etdi. Uchrashuvda mamlakatga qurol-yarog' olib kirishni to'xtatish g'oyasi ma'qullandi.

Ma'naviy ilhomchi va amaldagi rahbar arab millioneri Usoma bin Loden bo'ldi. U Keniya va Ugandadagi Amerika elchixonalariga nisbatan terroristik aktlar, Saudiya Arabistonidagi amerika qo'shini kazarmalariga hujumlar tashkilotchisi edi. Oxirgisida o'nlab amerikalik askarlar halok bo'ldi. Shuningdek, u 34 amerikalik dengizchi halok bo'lgan "Koul" kreyseriga hujumda ayblanadi.

AQSH Usoma bin Lodenni tutib berishni talab qildi. Toliblar rahbariyatining bundan bosh tortishi *1998-yilning 26-avgustida* Kobulga Amerika qanotli raketalari hujumiga olib keldi. BMT *1999-yilning 14-noyabrida* Afg'onistonga qarshi sanksiya kiritib, oziq-ovqat yordamidan mahrum etdi. Bunga javoban toliblar o'z tuzumi dushmanlariga

qarshi qatag'onlarni kuchaytirdi. Ular Shimoliy ittifoq qo'shinlari qo'mondoniga nisbatan terroristik akti amalga oshirdilar va uni o'ldirdilar. Bomiya viloyatida *XV asrdan buyon* mavjud bo'lgan Budda haykali vahshiylarcha portlatib yuborildi.

Amerika hokimiyatining ta'kidlashicha, Nyu-Yorkda *2001-yil 11-sentabrda* Savdo markazi binosiga amalga oshirilgan hujum Usoma bin Loden tomonidan amalga oshirilgan, prezident Bush bunga nisbatan antiterroristik urushni e'lon qildi. *2001-yil 7-oktabrda* Amerika va Britaniya samolyotlari Afg'onistondagi jangovar nishonlarni bombardimon qildi. Terroristlarni tayyorlagan barcha lagerlar tor-mor etildi. Toliblarning barcha bazalari vayron qilindi, ularning asosiy qo'shin qismlari tog'larga va Pokistonga qochdi. Afg'onistonda *2002-yil yanvarda* mamlakatda qayta tiklash ishlarini boshlagan qonuniy hokimiyat qaror topdi. Mamlakatni qayta tiklash dasturi jahon hamjamiyati tomonidan qabul qilindi. Hamid Karzay hukumat boshlig'i etib saylandi.

*2004-yil yanvarda* afg'on qabilalarining Katta jirg'asi yangi davlat konstitutsiyasini qabul qildi. Mamlakat demokratik jamiyat qurish yo'lini boshladi. O'zbekistonning yordami tufayli *Xayraton* (Termiz) - *Mozori Sharif* birinchi temir yo'li qurilmoqda. O'zbek quruvchilari Afg'oniston shimolidagi barcha ko'prildarni tikladi.

Mintaqadagi siyosiy jarayonlar dinamik tarzda tez rivojlandi. SSSR parchalanib ketdi. 1992-yil aprelda mujohidlar Kobulda o'z hukmronligini o'rnatdilar. Ammo siyosiy inqirozga chek qo'yilmadi. Sovet okkupatsiyasi va Najibullo hukumati bilan murosasiz kurashgan mujohidlar o'rtasida kutilmaganda kelishmovchiliklar, qarama-qarshiliklar, ajralishlar yuz berdi. Turlicha siyosiy nazariyalarga ega bo'lgan mujohidlar rahbarlari Afg'onistonni u yoki bu tumanini o'z tasarrufiga kiritish, mamlakatda monopol hukmronlik o'rnatishga urinish uchun o'zaro kurash boshladilar. Mujohidlar rahbarlarida Afg'onistonni iqtisodiy va siyosiy jihatdan qayta qurish rejasi amalda yo'q edi. Afg'onistonda mujohidlarning o'zaro urushlari yangi siyosiy vaziyatni vujudga keltirib, fuqarolar urushini yangi bir bosqichini boshlab berdi. Bu urush afg'on xalqiga juda ko'p qiyinchiliklarni ro'baro' qildi. Bu davrda qon to'kilishini oldini olish, mayda siyosiy guruhlarini birlashtirish har qachongidan ham muhim bo'lib qoldi.

Mamlakatdagi murakkab inqirozli vaziyatdan chiqish uchun o'sha vaqtdagi Pokiston bosh vaziri Navoz Sharifning tashabbusi, Pokistonning vositachiligi bilan Eron Islom Respublikasi va Saudiya Arabistonining qo'llab-quvvatlashi tufayli Pokiston poytaxti Islomobod shahrida mujohidlar (Rabboniy, Hikmatyor, Nabi Muhammadiy, Sibhatulloh Mujaddadiy, G'iloniy va boshqalar) o'rtasida muzokaralar boshlandi. Ular 1993-yilning 7-martida Islomobod bitimiga imzo chekdilar. Bu bitim ikki qismdan iborat bo'lib, birinchi qismida urushni to'xtatish, Afg'onistonda tinchlik va osoyishtalikni o'rnatish nazarda tutilgan edi. Uning ikkinchi qismida mamlakat prezidenti va bosh vazirining asosiy vazifalari, hukumatni tashkil qilish prinsiplari, mamlakatning iqtisodiy, siyosiy tarkiblari haqida fikr yuritilgan edi.

1993-yilning 19-martida Islomobod bitimiga imzo chekkan mujohidlarning yetakchilari muqaddas Makka shahrida yig'ilib, Islomobod bitimining barcha moddalarini vidonan bajarishga qasamyod qildilar. Afsuski, bu bitim qog'ozda qolib ketdi. Gap shundaki, prezident Rabboniy va bosh vazir Hikmatyor o'rtasida hukumatni shakllantirish masalalarida jiddiy qarama-qarshiliklar kelib chiqdi. Natijada Afg'oniston yana yangi urush girdobiga tortildi. 1992-yilda Kobulga urushsiz kirgan turli siyosiy guruhlar shaharni bo'la boshladilar. Shaharning shimoliy qismini Ahmadshoh Ma'sud boshqarib, u Rabboniyning yelkadoshi bo'lgan va Afg'oniston Islom Jamiyati tarkibiga kirgan. Shaharning janubiy

qismlari Gulbiddin Hikmatyor boshliq fundamentalistlar tomonidan bosib olingan. Markaziy viloyatlar va aeroport esa Abdurashid Do'stum va Ma'sudlar tomonidan egallangan. 1992-yilning aprelida Afg'oniston islom davlati tashkil qilinib, uning yangi organlari tayinlandi. Davlatning yangi yetakchilari bu harakatlarni "islom inqilobi" deb nomladi, xalq partiyasi harakati taqiqlab qo'yildi. Ushbu partiya parchalanib, uning xalq guruhidan bo'lgan asosiy yetakchilari Gulbiddin Hikmatyor xizmatiga "Parchamlar" guruhi vakillari Rabboniy yoki Do'stum xizmatiga o'tganlar. To'ntarishdan ikki hafta o'tgach prezident vazifalari Afg'oniston Islom Jamiyatining professori Burhoniddin Rabboniyga topshirildi, u dastlab olti oyga saylanadi. G. Hikmatyor saylovda qatnashishdan bosh tortadi, chunki uni Rabboniy qoniqtirmas edi. Burhoniddin Rabboniy yana ikki yilga prezident etib saylanadi. G. Hikmatyor esa bosh vazir lavozimini egallaydi. Islom ekstremistlarining harakatlari mamlakatda yangi fuqarolar urushining boshlanishiga sabab bo'ladi.

Hukumatning turli siyosiy va qurolli guruhlarini boshqarish o'ta mushkul bo'lgan. Ahmad Shoh Ma'sud qurollarni bir joyga yig'ishiga qaramay, o'z hududlarida boshqaruvchilik siyosatini olib borgan guruhlar qurollarini o'zida saqlab qolganlar va ular o'z tumanlarida hokimiyatni saqlab qolgan holda markaziy organlarga va prezidentga bo'ysunganlar. Najubulla tarafdorlaridan bo'lgan Abdurashid Do'stum armiya generali bo'lib, o'ziga tegishli 4 ta shimoliy tumanlarga egalik qilib, o'zining qurol omboriga, siyosiy boshqaruv tuzumiga va Mozori-Sharifda o'z qarorgohiga ega bo'lgan. Shimoliy-sharqiy yerlar tojik xalqi bilan A. Ma'sudga bo'ysungan. G'arbdagi Hirot yerlarini Ismoilxon boshqargan. Bundan tashqari yerlarga ham Kobulga bo'ysunmaydigan yetakchilar nazorat o'rnaganlar. Ular o'zlarini amir deb e'lon qilganlar. Shu tarzda fuqarolar urushi kuchayib borgan. Mamlakatdagi siyosiy hokimiyatni asosiy partiya yetakchilari tashkil qilgan, 7 partiyali alyans parchalanib ketadi, uning o'rnini boshqa kuchlilar egallaydilar. Ular ichida eng kuchlisi Afg'oniston Islom Jamiyati(AIJ) bo'lib, uni professor Burhoniddin Rabboniy boshqargan. AIJ ni turli millat ve elat guruhlarini tashkil qilgan, lekin aksaryati tojik bo'lgan. Partiya g'arb davlatlari va Eron bilan aloqada bo'lib turgan. Mamlakatda fuqarolar urushi kuchayib, hokimiyat uchun qizg'in kurashlar boshlanadi. Xalq turli xil guruhlariga birlashib, tobora urush girdobiga tortilib borar edi. Butun boshli afg'on xalqi bir-birlari bilan tinimsiz kurash olib borar edi. Bunday urushlarni to'xtatadigan yagona markaz topilmadi. Professor Rabboniy ham buni uddalay olmadi. U ham mamlakatni to'liq birlashtira olmadi. Hokimiyat uchun kurashga Afg'oniston Islom Partiyasi (AIP) Gulbiddin Hikmatyor boshchiligidagi kirishadi. Ularning asosini pushtun xalqlari tashkil qilar edi. Gulbiddin Hikmatyor islom fundamentalizmi, ekstremizmi yo'lidan borib, bu yo'lda hech narsadan toymadi. Uning alohida kurash olib borishi mamlakatda fuqarolar urushini yanada kuchaytirdi. Uning maqsadi Afg'oniston Islom respublikasini tuzish edi. Uning davlatida din asosiy rol ni o'ynashi kerak bo'lib, davlat boshqaruvi ham dinga bo'ysundirilar edi. Hikmatyor asosiy yordamlarini Pokistondan olib turgan, Eron mamlakati bilan ham yaxshi aloqa o'rnatishga harakat qilgan.

Siyosiy jihatdan uchinchi kuchni A. Saif boshchiligidagi Islom Qutqaruv guruhi egallagan. Uning tarkibining asosini ham pushtunlar tashkil qilgan bo'lib, vahobiylarning fundamentalistik g'oyalarini ilgari surganlar. Ular bevosita Saudiya Arabistoni vahobiylari bilan aloqa bog'lab, ulardan ma'naviy va moddiy yordam olib turganlar. Bu guruh vakillari ham XX asrning 90-yillarida mamlakat siyosiy hayotida faol bo'lib, yirik harbiy harakatlar olib borganlar.

Bir qancha siyosiy ittifoqlarning paydo bo'lishi va parchalanishidan keyin 2ta asosiy birlashma yuzaga kelib, birini Prezident Rabboniy, ikkinchisini bosh vazir Gulbiddin

Hikmatyor boshqargan. Burhoniddin Rabboniyning asosiy ittifoqchisi Afg'onistonni ozod qilish tashkiloti bo'lgan. Musulmon yoshlari tashkilotida o'z faoliyatini boshlagan B. Rabboniy va G. Hikmatyor dastlab islom fundamentalizmi tarafdorlari bo'lgan. Biroq keyinchalik ularning yo'llari ayrilib, Rabboniy xalqning an'analari, urf-odatlariga ko'proq e'tibor berib, fundamentalizmdan voz kechadi. Gulbiddin Hikmatyor esa o'z yo'lida davom etib, professor Rabboniy bilan muqobil holatda bo'lib qoladi. Najubullo hukumati qulagach, hokimiyat uchun kurashda bu ikki yo'l boshchi bir-birlariga dushman bo'lib qoladi. AIT va AIP o'rtasidagi dastlabki urush sovet harbiylari mamlakatdan olib ketilmasidan oldin bo'lgan edi. Ular o'rtasida u vaqtlarda kuchli janglar va qarama-qarshiliklar bo'lmagan. Ular o'rtasida ochiq urush 1989-yilda AIP askarlari Ahmad Shoh huzuriga ketayotgan 30 nafar AIT a'zolarini o'ldirilishidan boshlanib ketadi. Bosh vazir lavozimini egallagan Gulbiddin Hikmatyor Ahmad Shohni qo'mondonlik va boshqaruvchilik lovozimidan olib tashlanishi va Abdurashid Do'stum qo'shinlari Kobuldan chiqib ketishini talab qiladi. Gulbiddin Hikmatyor hatto Rabboniyning prezidentlik lovozimini tan olmaydi va Kobulga ko'chib o'tish taklifini rad etadi. Biroz vaqtdan so'ng Kobulni o'qqa tutishni boshlaydi. Uning bu harakatlariga qarshi chiqqan guruhlarining harbiy harakatlari tufayli fuqarolar urushi kuchayib boradi.

Burhoniddin Rabboniy dastlab "musulmon birodarlari" tashkilotiga a'zo bo'lib kirgan edi. Keyinchalik Afg'onistonda bu harakatning yorqin vakiliga ham aylangan. 1968-yilda professor unvonini olgach, musulmon yoshlari guruhiga o'z g'oyalarini uqtirishni boshlaydi. 1975-yildagi muvafaqqiyatsiz islom to'ntarishidan so'ng davlatni tark etadi. Burhoniddin Rabboniy fikricha, davlatning iqtisodiyotga yo'naltirilgan siyosati islom talablariga asoslangan va mamlakatni qoloqlikdan olib chiqishga qaratilgan. Uning ko'pgina tashviqotlari ish berib, 1992-yilda mamlakat prezidenti etib saylangani bizga ma'lum. Rabboniy 1995-yilda prezidentlikni muvaqqat hukumat ixtiyoriga topshirishi kerak edi. Lekin uning ishlariga Hikmatyor to'sqinlik qiladi. Bundan tashqari bu vaqtda toliblar ham yirik harbiy harakatlari bilan Qandahorning bir qismini bosib olgan edilar. Mamlakatdagi bunday voqealarning asosiy sababi turli guruhlar o'rtasida umumiy birlikning yo'qligi edi. Masalan, Gulbiddin Hikmatyorning uch yil davomida Rabboniyga qarshi kurashgani mamlakatda fuqarolar urushini uzluksiz davom etishini ta'minladi. Hikmatyor Rabboniyning prezidentlik lavozimini tan olmaydi. Uning qarshi harakatlari toliblarning hokimiyat tepasiga kelishiga zamin tayyorladi. 1992-yilda Rabboniy va Hikmatyor o'rtasida bitim tuzilib, mamlakatni birgalikda boshqarishga kelishiladi. Lekin Hikmatyor bu kelishuvga amal qilmaydi va markaziy hokimiyatni kuchsizlantirish uchun qurolli harakatlarni to'xtatmaydi, bu kabi qarshi harakatlar fuqarolar urushini yangilab turgan.

Harbiy to'ntarish natijasida Muhammad Dovud o'ldiriladi, sotqinlik bilan Nur Muhammad Tarakkiy, shturmda Hafizulla Amin o'ldiriladi, Najibulla esa osib o'ldiriladi. Babrak Karmal yurtidan yiroqda, quvg'inlikda kun kechirishga majbur etiladi. Toliblarning hokimiyatni egallashida chet el yordami beqiyosdir. 80-yillar oxirida Pokiston va AQSH mujohidlar ruhiyatini ko'tarish uchun Afg'oniston-Pokiston chegarasida ruhiy-ideologik tizim o'rnatishga harakat qildilar. Bu tizim madrasa-diniy maktablar bo'lib, ularga ko'pgina afg'on qochoqlari qabul qilindi. Aynan ular dastlabki toliblar bo'lib, ularning nomlarining kelib chiqishi ham shundan olingan.

Toliblar afg'on chegaralarida dastlab 1994-yilda Pokistonning chegaradosh yerlarida paydo bo'lib, deyarli kuchli to'siqlarga uchramaydi. 1995-yilda osonlik bilan Qandahorni bosib olib, shimoliy-sharq va g'arbga tomon harakatlanadilar. Ular Kobul ostonalarida Ahmadshoh Ma'sud tomonidan va g'arbiy viloyatlarga yurishi esa Hirotda Ismoilxon tomonidan

to'xtatiladi. 1995-yilning kuzida toliblar ikkinchi marotaba yurish boshlaydilar va Hirot qo'lga olinib, Ismoilxon Eronga tomon qochadi. Kobulni toliblar 1996-yilning kuzida qo'lga kiritadi. Poytaxt qo'lga kiritilgach, ular Afg'oniston Islom Amirligi tuzilganligini e'lon qiladi. Ularni Saudiya Arabistoni, Pokiston va Birlashgan Arab Amirliklari davlat sifatida tan oladilar. Toliblarga harbiy tomondan Pokiston davlati, moddiy tarafdin Saudiya Arabistoni yordam beradi. Toliblarning hukumatga kelishi bilan mamlakatda davom etayotgan fuqarolar urushi yangi bir bosqichga ko'tariladi. Hokimiyatni qo'lga olgach, toliblar o'ziga chegaradosh bo'lgan davlatlar tomon yurish qilishga ham urinib ko'radilar. Biroq ayni vaqtda mamlakatda qarshi kuchlar hali to'la bartaraf etilmagan edi. Toliblar har qanchalik harakat qilmasinlar, Ahmadshoh Ma'sud va Abdurashid Do'stumni dastlab to'raligacha yenga olmaydilar. Shimoliy hududlar asosan antitolib harakati boshliqlari o'rtasida taqsimlanadi. O'zbeklar yetakchisi Do'stum shimolda o'z boshqaruvi, kichik davlatini tuzib, alohida bo'lib oladi. Uning o'z byudjeti, armiyasi va xalqaro diplomatiyasi bo'lgan. Hatto, uning kichik davlati alohida pul chiqarish ishlarini ham yo'lga qo'yadi. Mamlakarning shimoliy-sharqiy qismida Ahmadshoh Ma'sud avtonom respublika tuzib, o'z siyosatini olib boradi. 1997-yilda Afg'onistonning birlashgan fronti tuziladi, u antitoliblarning shimoliy alyansi deb atalgan. Shimoliy alyansni mag'lub etish uchun toliblar qattiq kurash boshlaydilar. Bir qancha janglar natijasida toliblar birlashgan qo'shinlarni yenga olmaydilar.

Qandahor qo'lga olingach, toliblar soni 21 mingga yetadi. 1996-yilda toliblar yetakchisi Mulla Muhammad Umar Oxun "dindorlar hokimi" etib tayinlanadi. Toliblar 2 ta islom markazlarini tashkil qiladilar. Biri Qandahorda joylashib, unda qarorgoh joylashgan va 6 kishidan iborat "Afg'onistonda islom harakatini boshqaruvchi oliy ittifoq" faoliyat yuritgan. Boshqa 23 vazirdan iborat ittifoq Kobulda joylashgan edi.

"Islom nafaqat e'tiqod, balki yashash tarzidir" shiori ostida toliblar davlatni islomlashtirishga intilganlar. Yevropaliklar bilan gaplashish, ularning kiyimlarini kiyish, hatto televizorlar ko'rish yoki uni xarid qilish qattiq taqiqlangan. O'g'irlik uchun esa odamning qo'li chopib tashlangan. Ayollarning paranjisiz yurishlari mumkin bo'lmagan, ular buni qattiq turib ta'qib qilganlar. Toliblar mamlakatning shimoliy hududlaridan boshqa barcha hududlarda hukmronligini o'rnatadilar. Ahmadshoh Masud boshchilik qilayotgan avtonom davlat qo'shni davlatlar, ya'ni toliblarni qo'llab-quvvatlayotgan davlatlar tomonidan mag'lub etiladi. Toliblar mamlakatda pushtunlarga yon bosib, millatchilikka yo'l qo'yadilar. Shuning uchun ham ularning boshqa mayda millatlar orasida obro'lari pasayib ketadi. Vaholanki islom dini millatchilikka yo'l qo'ymaydi. Islom amirligini tashkil qilgan pushtunlar endi islom xalifaligini yoqlab chiqadilar. Bu dunyo miqyosida barcha musulmonlarni bir joyga to'plab, yagona boshqaruv asosida oldingi xalifalik davriga qaytishga qaratilgan ishlardan biri edi. Bu hol boshqa davlatlarning ichki ishlariga to'g'ridan-to'g'ri aralashuvda yaqqol bilingan. Ayrim ma'lumotlarga qaraganda, toliblar Rossiyaga jihod e'lon qilib Chechinistonni va Markaziy Osiyo ekstremistlarining "O'zbekiston Islom harakati" ni qo'llab-quvvatlagan. Xalqaro terrorchi Usama Ben Ladinga yordam berganligi toliblarning asil qiyofasini ochib berdi. Katta moddiy boylikka ega bo'lgan Usama Ben Ladin toliblarni mablag' bilan ta'minlay boshlaydi. Biroq uning asosiy maqsadi "Al-Qoida" terroristik guruhini tayyorlash bo'lgan. Ko'rib turganimizdek, afg'on fuqarolar urushida tashqi omillar ham yetakchi ro'l o'ynagan. Tayyor holdagi terroristik guruhlar turli mamlakatlarga yuborilib g'arazli niyatlarini amalga oshira boshlaganlar. Usama Ben Ladin va Umarning do'stlik va hamkorligi qarindoshlik aloqalari bilan bo'g'langan. Muhammad Umar uning kuyovi bo'lgan.

Fuqarolar urushi davrida toliblar hukumati ko'pchilik afg'onlar tomonidan tan olinmaydi. Shimoliy alyans a'zolari o'z faoliyatlarini kuchaytira boshlaydilar. Butun dunyo jihodiga katta umid qilgan toliblar yakkalanib qoladilar. Musulmon dunyosi, hattoki toliblarning homiylari ham bora-bora Ben Ladinning islomiy g'oyalariga ishonmay qo'yadilar. Toliblar harakatining o'zida ham birlik bo'lmagan. Usama Ben Ladinning g'oyalari tufayli toliblarning islomiy-ekstremistik g'oyalari terrorizmga aylanadi. Bunda asosiy rolni Ben Ladinning "Al-Qoida" guruhi va "Butun dunyo jihodi" tashkiloti hamda toliblar bajardi.

2001-yilda shimoliy alyans yetakchisi Ma'sud Afg'onistonning Toxar viloyatida toliblar tomonidan vaxshiylarcha o'ldiriladi. Shu yilning 11-sentabrida AQSHda sodir bo'lgan qo'poruvchilik Afg'onistondagi siyosiy holatni murakkablashtirib yuboradi. BMT hamkorligida 2001-yilning 7-oktabrida AQSH Afg'onistonga qarshi antiterror harakatlarini boshlab yuboradi. Natijada Afg'oniston Islom amirligi parchalanib ketadi. AQSH harbiylarining mamlakatga kiritilishi fuqarolar urushini yanada kuchaytirib yuboradi. Hokimiyat uchun ham kurash boshlanadi. Unda pushtunlar yetakchisi Homid Karzay yutib chiqadi. 2002-yilda bo'lib o'tgan saylovlar natijasida Karzay hukumati o'rnatiladi. Undan tashqari bu lavozimga Zohirshoh, Burhoniddin Rabboniy va boshqa bir qator yetakchilar da'vo qilayotgan edilar. AQSH hukumati Homid Karzayni har tomonlama qo'llab-quvvatlaydi. Yangi hukumat ham kuchli bosim ostida qoladi. Bir tomondan Shimoliy Alyans vakillari, ikkinchi tomondan boshqa pushtun qabilalari hokimiyatga intilayotgan edilar. Mamlakatda fuqarolar urushi davom etar, siyosiy-ijtimoiy holat deyarli izdan chiqqan edi. Toliblarning mag'lub etilishi mamlakatda ichki birdamlikni ta'minlay olmadi. Mag'lub etilgan toliblar vakillarini quolsizlantirish ishlari boshlanadi. Shunga qaramay, ular 2004-yilgacha faol harbiy harakatlar olib boradilar.

Fuqarolar urushi yuz bergan vaqtda mamlakat iqtisodiyoti butunlay izdan chiqdi va inqirozga yuz tutdi. Barcha turdagi ishlab chiqarish, energetika, infrastruktura, qishloq xo'jaligi, transport aloqalari va boshqa bir qator sohalar izdan chiqdi. Yangi hukumat iqtisodiy sektorlarda bir qancha o'zgarishlar qildi va rivojlanishiga sharoit yaratishga harakat qilindi. Ammo mablag'ning yo'qligi va chetdan qochoqlarning qaytib kelishi hisobiga iqtisodni yo'lga qo'yish qiyin kechdi. Chetdan mablag' kiritishga fuqarolar urushi to'sqinlik qilar edi. Hukumat tomonidan chet el investitsiyalarini himoyalovchi qonun qabul qilindi. Afg'onistonda XXI asrda ham qishloq xo'jaligi asosiy tarmoqlaridan biriligicha qoldi. Uning mahsuldorligi yildan-yilga pasayib borgan. Rossiya tashqi ishlar vaziri I. Ivanov 2003-yil Afg'onistonga tashrif buyurib, yangi hukumat siyosatini ma'qullashini va mamlakat iqtisodiyotini tiklashda yordam berishini ta'kidladi. Rossiya hukumati Mozori Sharifdagi azot zavodini qayta tiklanishida yordam beradi. Fuqarolar urushi davrida mamlakat aholisi dahshatli azoblarga duchor bo'lgan. Buni til bilan izohlash qiyin, inson tasavvuriga sig'maydigan qabih ishlar amalga oshirilgan.

XXasrning ikkinchi yarmida Afg'oniston tarixida afg'on jamiyatini tubdan o'zgartirib yuborgan, uni larzaga keltirgan bir qator dahshatli va fojeali voqealar sodir bo'ldi. 1973-yildagi davlat to'ntarishi natijasida mamlakatda monarxiya tuzumi tugatildi. Afg'oniston respublika deb e'lon qilindi. 1975-yilda Afg'onistonning ba'zi bir viloyatlarida islomiy kuchlar respublika tuzumiga qarshi bosh ko'taradi. 1978-yilda savr to'ntarishi g'alaba qildi. Afg'oniston demokratik respublika deb e'lon qilindi. Mamlakatda kommunistik tuzum o'rnatildi. Bu rejimni himoya qilish maqsadida 1979-yilning dekabridan boshlab mamlakatga sovet harbiy qo'shinlari kiritila boshlandi. Sovetlar xalqaro huquq normalarini oyoqosti qilib, mamlakatning ichki ishlariga aralashdi va fuqarolar urushini alangalanib ketishiga sabab bo'ldi. Buning oqibatida Kobuldagi kommunistik rejim va sovet

agressiyasiga qarshi o'z vatanini sovet bosqinchilaridan ozod qilish, dini va erkini himoya qilish uchun mujohidlar harakati avj olib ketdi.

Holbuki, Afg'onistonga sovet qo'shinlari bostirib kirishidan avval mamlakatda vujudga kelgan muammoni chet davlatlarning aralashuvisiz hal qilishning hali imkoni bor edi. Mamlakatda hokimiyat talashayotgan mujohidlar, siyosiy va diniy partiyalar mamlakat taraqqiyoti, taqdiri va kelajagi masalalarida o'zaro kelishishlari mumkin edi. 1992-yilning aprel oyida Muhammad Najibulla hukumati ag'darildi va hokimiyat mujohidlar qo'liga o'tadi. 1994-yilning sentabr oyida Afg'onistonning siyosiy hayotida yangi bir kuch – "Toliblar" paydo bo'ldi va ko'p o'tmay 1996-yilning sentabrida ular hokimiyatni qo'lga kiritadilar. Shu vaqtdan boshlab Afg'onistondagi shafqatsiz janglar milliy va etnik kurashlarga aylanib ketadi. Afg'onistondagi fuqarolar urushi ba'zi vaqtlarda mintaqaviy urushlarga ham aylanib ketish xavfini tug'dirdi. Chunki bunday vaziyatlarda butun Markaziy Osiyo uchun xafli holatlarni yuzaga keltirish mumkin edi. Shu tarzda 1992-2001- yillarda ham Afg'oniston yana turli guruhlar o'rtasidagi etnik, hudud va hokimiyat uchun kurash maydoniga aylanib ketdi. Bu davrda ham fuqarolar urushi qizg'in tus olib bordi. Shu bilan birga narkobiznesning avj olishi, fudamentalizm, diniy ekstrimizm harakatlari va chet davlatlar manfaatlarining to'qnashuvi Afg'onistonda murakkab siyosiy vaziyatni vujudga keltirdi.

Mojaroni bartaraf etish uchun 90-yillaro'rtalarida BMT, Zohirshoh va Burhoniddin Rabboniy rejaları ilgari surildi. Biroq bu rejalar qarama-qarshi tomonlar manfaatları to'g'ri kelmaganligi sababli natija bermaydi. Afg'onistonda fuqarolar urushini tugatilishining qiyin ekanligida bir qancha sabablar bor. Bu davlat mojarosini hal qilishning oson emasligi, uning naqadar murakkab, chigal ekanligi ko'proq qadim zamonlardan buyon o'z yechimini topmay, yig'ilib, keskinlashib kelgan ichki va tashqi omillar va ularning chuqur ildizlari bilan bog'liqdir. Muammoning ichki tomonlari, uning ildizlari Afg'oniston davlatchiligining shakllanish jarayoni, mentaliteti, bu davlatning ko'p millatli ekanligi bilan uzviy bog'liqdir. Mantiqan har bir millat, etnik guruh o'ziga xos chuqur etnomadaniy ildizlarga ega bo'lib, mamlakat boyligi hisoblanadi. Ammo rivojlanish jarayonida turli millat va etnik guruhlar o'rtasida qarama-qarshilik va ziddiyatlar paydo bo'ladi. Chunki Afg'onistonda mavjud bo'lgan 30 dan ortiq millat va etnik guruhlarining bir me'yorda ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishini nazarda tutgan kompleks hududiy dastur hech qachon bo'lmagan. Etnik guruh vakillari davlatni boshqaruv organlariga kamdan-kam jalb qilinardi. Bu hol shubhasiz, etnik guruhlarining Kobul hukumatiga mamlakatni boshqarishda monopol huquqqa ega bo'lgan yetakchi etnik guruhlariga nisbatan norozilik kayfiyatini uyg'otib keldi.

Milliy va etnik taraqqiyot haqida so'z borganda til masalasi alohida ahamiyatga ega. Afg'onistonda asosan ikki til: pushtu va dariy tillari davlat tili hisoblanadi. Dariy tili uzoq tarixiy davrdan boshlab mamlakat madaniy hayotida, san'at va adabiyotida, ish yuritishda, tashqi aloqalarda muhim rol o'ynab keldi. 1936-yilda pushtu tili davlat tili deb e'lon qilindi. Bu aynan pushtunlashtirish masalasining o'ziga xos ko'rinishlaridan biri edi. Mamlakatda yuz bergan fuqarolar urushida ichki omillardan biri deb pushtunlashtirish masalasini olsak xatoga yo'l qo'ymaymiz.